

KO`P QUTBLI DUNYO TARTIBI SHAKLLANMOQDAMI?

Shahobiddinov Bobur Kamoliddin o'g'li

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti 2-kurs talabasi

shahobiddinovbobur253@gmail.com

Annotatsiya: Biz bilamizki dunyodagi barcha davlatlar teng huquqqa ega va bu BMT nizomida ham yaqqol takidlab o'tiladi. Dunyo ikkita eng katta davlatlar, SSSR va AQSH o'rtaсидаги 1945-1991-yillarda bo'lib o'tgan "Sovuq urush" ni boshdan kechirdi va bu urush natijalariga ko'ra SSSR parchalanib ketdi va dunyoda yaqqol AQSH gegemonligi saqlanib qoldi va dunyoda AQSH nufuzi keskin oshdi. Lekin hozirda XXI asrning 20-yilliklarida bo'layotgan voqealar, asosan davlatlarning maqsadlari ko'p qutbli dunyon shakllantirishga qaratilganligini bilishimiz mumkin va shu o'rinda Rossiya va Xitoy sherikchiligi, BRIKS tashkilotining mavqeyi oshib borayotganligi, 2023-yildagi bu davlatlarning tez tez yig'ilishlari, bu tashkilotdagi davlatlar o'rtaсидаги munosabatlar yana ham rivojlanib borayotganligi ko'rishimiz mumkin. Va biz bu maqolada davlatlarning dunyo siyosatida amalga oshirayotgan o'zgartirishlarini va so'nggi yillardagi asosiy o'zgarishlarni, davlat rahbarlari uchrasuvlari, asosan ko'p qutbli dunyo tartibini shakllantirishga harakat qilayotganlarini ko'rib chiqamiz.

Kalit so`zlar: Sovuq urush, Qo'shilmaslik harakati, BRIKS, SHHT tashkilotlari,

Rossiya-Afrika davlatlari konferensiyasi, "Bir makon-bir yo'l" loyihasi

Tarixdan malumki, dunyo mamlakatlari ikkita jahon urushini boshidan kechirdi. Urush boshlanishining maqsadlaridan biri sifatida, davlatlarning dunyoda gegemonlik qilishga harakat qilishlari, yani jahon urushlarida gegemonlikni maqsad qilgan davlatlarning maqsadlari Sovuq urush davridagi SSSR va AQSH maqsadlariga o'xshaydi. Yevropada bo'lgan yoki mustamlakachilik yo'lida davlatlar o'rtaсидаги urushlar ham asosan gegemonlikka qaratilgan edi, xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Bir qutbli dunyo, ikki qutbli dunyo yoki Ko'p qutbli dunyo atamalari urushlar orqasidan kelib chiqqan. Biz bilamizki 1945-yildan 1991-yilgacha davom etgan Sovuq urush ikki qutbdagi SSSR va AQSH o'rtaсида bo'lib o'tganligini tarixdan bilishimiz mumkin, yani davlatlar o'zining rivojlanish yo'lini yo SSSR bilan davom ettirgan yoki AQSH bilan. Sovuq urush davrida bir necha davlatlarda qirg'in-barotlikka olib keluvchi urushlar bo'lib o'tgan, Vietnam urushi, Koreya urushi. Sovuq urush davrida bir nechta davlatlar o'zlarini neytral tutishga harakat qilishganini yoki ko'p qutblilik dunyo tartibini xohlashganini 1961-

yilda imzolangan Qo`shilmaslik harakati orqali bilishimiz mumkin,yani harbiy-siyosiy bloklar yoki guruhlarda qatnashmaslikni qo`llab quvvatlaydigan davlatlarni o`z ichiga birlashtirgan,faktga qaraydigan bo`lsak mustamlakachilik davrida asosan katta katta gegemon davlatlar kichik,yani o`zidan kuchsiz bo`lgan davlatlarni o`zining mustamlakasiga aylantirgan va bu harakatning azolari ham asosan mustamlakachilik davrida aziyat tortgan davlatlar tashkil qiladi.Yuqorida aytib o`tganimizdek hamma davlatlar teng huquqqa ega,va o`z pozitsiyalarini o`zining milliy manfaatlaridan kelib chiqgan holda olib boradi. Shuningdek,dunyodagi davlatlar teng bo`lganligi uchun ham ushbu davlatlar yakka qutbli,yoki ikki qutbli dunyo tartibidan ko`ra ko`p qutbli dunyo tartibini shakllantirishga harakat qilishmoqda.

Yuqorida aytib o`tganimizdek,Sovuq urush davrida dunyo asosan ikkiga bo'lindi va asosan davlatlar rivojlanish yo`lini kapitalistik yoki sotsialistik yo`ldan olib bordi.1991-yilda SSSR parchalanishi,yani Sovuq urushda AQSH boshchiligidagi kapitalistik dunyo g`alaba qozonganidan keyin,dunyo bir qutbli tartibi bo'yicha shakllandı,AQSH boshchiligidagi.Qanday qilib Amerika Q`shma Shtatlari dunyoda o`zining gegemonligini saqlab qola oldi,katta-katta mustamlakalarga ega bo`lgan SSSR ustidan g`alaba qozondi va bir qutbli dunyo tartibini qanday yaratdi degan savol juda ko`pchilik tomonidan katta etiborda bo`ladi. Amerikalik geosiyotchi olim Nikolas Spaykman aytganidek,tarixdan shunisi aniqliki tarixda bir qancha yirik davlatlar,imperiyalar bo`lgan va misol uchun,Mo'g'ullar davlati,Rim imperiyasi va ular o`z davrida juda katta mavqega,davlatlarga tasir ko`satadigan darajada kuchga ega bo`lishgan,lekin ular asosan davlatlarning yerini o`ziga qo'shib olish,yoki uni mustamlakaga aylantirish bilan o`zining harbiy quadratini namoyon qilgan,lekin hammasi parchalangan.Nikolas Spaykman aytganidek bu tezisga asos qilib,Amerika Qo'shma Shtatlarini ham yirik imperiyadek taqqoslasak bo`ladi,lekin Amerikaning shu davrgacha gegemonligini saqlab kelayotganligining asosiy sababi,mustamlaka qilish emas yoki davlatlar hududlarini o`ziga qo'shib olish emas,bu siyosiy institutlarni tashkil qilish va ular orqali davlatlarni boshqarishdir va aynan bunday siyosiy institutlari orqali dunyoda gegemon bo`lib kelmoqda. Yani AQSH siyosiy institutlarni shakllantirdi va ular orqali gegemonlik qildi,masalan NATO(Shimoliy Atlantika shartnomasi),SEATO(Janubiy-Sharqiy Osiyo shartnomasi)va qiziq tomoni ikkisi ham harbiy blok hisoblanadi.Yani AQSH Nato orqali Yevropa,Seato orqali esa Janubiy-Sharqiy Osiyo hamda Avstraliya mintaqasidagi davlatlarga tasir o`tkazadi.Qo`shimcha qiladigan bo`lsak, Zamonaviy xalqaro huquq AQSH

uni buzish huquqini saqlab qolgan holda yaratilgan,misol uchun AQSHning Liviya,Iraq,Afg`onistonda olib borgan urushlari.

SSSRga keladigan bo`lsak,SSSR asosan mustamlaka hududlarini o`ziga qo'shib olgan va xuddi bu narsa yuqorida aytganimizdek Mo`g`ullar yoki Rim imperiyasi siyosatiga o`xshaydi va etiborlisi tashqi tomonidan emas o'zining ichki tomonidan zaiflashib bordi va yakunda parchalandi. Yuqorida aytib o'tganizmidek,AQSH o'zining siyosiy institutlari orqali dunyoda yetakchi bo`ldi.

Maqolamizning mavzusiga qaytadigan bo`lsak hozirda jahon mamlakatlari ko`p qutblilik dunyo tartibini yaratishga harakat qilishmoqda. Yuqorida bayon qilingan malumotlar asosan ikki qutblilik yoki ko`p qutblilikni tushunishga qaratilgan malumotlar edi.

2022-yilning muhim voqealari sifatida,25-fevral kuni Rossiya Ukraina hududiga bostirib kirishi bilan jahondagi geosiyosiy voqealar yanada jiddiylashdi,masalan yana dunyo ikkiga bo`linib qolingandek tuyuldi, yani AQSH o'ziga tarafdar davlatlar bilan Rossiyaga muntazam sanksiya kiritib kelmoqda,ayrim davlatlar ham Rossiya bilan ham,AQSH bilan ham aloqalarni muntazam tarzda davom ettirmoqda.Va qiziq tomoni Rossiyaning qo'llab quvvatlaydigan davlatlar ham ko`paydi.Rossiyaning maqsadi bu Ukrainianadagi harbiy operatsiyani tezlik bilan yakunlash edi,lekin aksiga olib,bu urush hali ham davom etmoqda va jahondagi turli davlatlar iqtisodiyotiga jiddiy zarar yetkazmoqda. Va etiborli jihat shuki,bu urush davrida Rossiya-Xitoy sherikchiligi yana ham mustahkamlanib bormoqda,buni biz 2022-2023-yillarda ikki davlat o'rtasida bo'layotgan savdo,siyosiy,iqtisodiy aloqalarida ko'rishimiz mumkin.Umumiyligida bu urush fonida Xitoyning jahondagi mavqeyi rivojlanib bormoqda.Hozirgi Xitoyning iqtisodiyoti,o'sib borish dinamikasi,10 yil oldingi Xitoy davlatidan keskin farq qiladi va ushbu tomonlar hisobga olingan xolda Xitoyning jahondagi nufuzi oshib bormoqda va Xitoy hozirda asosiy etiborini ko`p qutbli dunyo taribini shakllantirishga qaratgan,yani Xitoyning Rossiya-Ukraina urushi fonida urushni tinchlik asosida tugatish,betaraf bo'lishga urinayotganligi va ayrim mintaqalarda o'zining siyosiy mavqeyini mustahkamlash orqali jahon integratsiyasini yaratishga harakat qilayotganligi yaqqol misol bo`la oladi. Misol uchun Xitoy vositachiligidida Pekinda 10- mart kuni Saudiya Arabistonini va Eron o'rtasida uzoq davom etgan uzilib qolgan munosabatlarni qayta tiklashga qaratilgan kelishuvga kelishildi va oradan 2016-yilda uzilgan munosabatlardan so'ng 7 yil o'tib ikki davlat o'rtasida elchixona ochildi,va musulmon davlatlari o'rtasida bo'layotgan Yamandagi urushni ham Saudiya Arabistonini tugatishga qaror qilganligi,shunindek Arablar davlatlariga malham solinganidek Misr va

Suriya uzoq davom etgan tanaffusdan so'ng diplomatik munosabatlarni tiklashlanligi,yoki Suriyani Arab davlatlari keng miqyosada diplomatik munosabatlarga tortishga harakat qilganligi bular hammasi Xitoyni Yaqin Sharq mintaqasida nufuzi kuchayib borayotganligi va bu mintaqadagi davlatlarni jahon integratsiyasiga tortayotganligidan dalolat beradi.Etiborli jihat shuki Xitoy siyosatining Bir makon-Bir yo'l loyihasidagi ayrim siyosiy voqealar amalga oshayotgandek,yani jahon integratsiyasida bo`lmagan davlatlarni jahon integratsiyasiga qaytarish,umumiy xolda,bir mintaqada bir nechta davlatlar o`rtasida aloqalar yo`q bo`lsa,yoki urush harakatlari bo`layotgan bo`lsa bunday mintaqalarda integratsiya unchalik rivojlanmaydi va biz guvoh bo`lishimiz mumkinki hozirda Yaqin Sharqda bo`layotgan davlatlar o`rtasidagi munosabatlar ijobjiy tomonga o`zgarganini.

Va hozirda bo`layotgan jiddiy iqtisodiy o`zgarishlardan biri bu dollarni ahamiyatini pasaytishga qaratilgan harakatlar va shu orqali davlatlar o`zlarining pul siyosatlarini milliy valyutalarda erkin olib borishlari mumkinligi,qo`shimcha qiladigan bo`lsak AQSH o`zining sanksiyalarini ko`p hollarda dollarga tayangan xolda amalga oshiradi,misol uchun davlatlarning chet-el banklaridagi dollar valyutalarini muzlatib qo`yishi orqali o`zining talablarini qo`yishi,davlatlar o`rtasida jiddiy muhokamalarga sabab bo`ladi,bunday xolatlarga qarshi, dollarga qarshi muqobil milliy pul valyutalarni shakllantirish dolzarb bo`lib kelmoqda.Dollarga qarshi muqobil pul variantarini yaratish g`oyasini BRIKS davlatlar ishlab chiqganligi etiborga molik. Yani bu tashkilotning eng katta azolari Rossiya,Brazil, Xitoy o`zaro savdoda dollardan voz kechishga harakat boshlaganligi va bu davlatlar o`rtasida kelajakda bo`ladigan savdolar milliy valyutalar orqali amalga oshirilishi dollar gegemonligiga alternativ yaratatishga qaratilgan harakatdir.Keyingi asosiy o`zgarishlardan biri BRIKSning dunyo siyosatidagi o`rni o`zgarib borayotganligi.Misol uchun 2022-yilda o`tkazilgan oxirgi sammitda guruhni kengaytirish g`oyasi kuchayib borayotganligi,yani ko`proq mamlakatlarni jalb etish orqali bu tashkilotni katta tasirga ega qilish.Va shunga yarasha,Xitoy va Braziliya o`rtasida tovar aylanmasi har yili rekord darajada rivojlanib bormoqda,ikki davlatlar hattoki milliy pul valyutalarida ham savdo qilishni kelishib olishi,Rossiyaning Hindistonga eksporti 3 barovar ko`payganligi bular hammasi tashkilotning rivojlanib borayotganidan dalolat beradi.Va qiziq tomoni Ukrainadagi urush BRIKSdagi davlatlarni siyosiy jihatdan ham yaqinlashtirdi,yuqorida takidlanganidek,Rossiya va Xitoy sherikchiligi bunchalik birlashmagan edi.

2023-yil 19-21-mart oylarida Moskvada bo`lib o`tgan Rossiya prezidenti Vladimir Putin va Xitoy Xalq Respublikasi raisi Shi Jinpin uchrashuvi,"Rossiya-Afrika ko`p qutbli dunyoda" xalqaro parlament konferensiyasi ham etiborga molikdir.Bu uchrashuv va konferensiyadagi asosiy tezis ko`p qutblilikka qaratildi yani Afrika davlatlari bilan aloqalarni sezilarli darajada jonlantirish va ularni jahon integratsiyaga qo`sish.Bu konferensiyada ham Rossiya va Xitoyni ishtirok etganligi muhim ahamiyat kasb etadi.Va bu uchrashuvda ko`p tilga olingan, Rossiya va Afrika mamlakatlari xalqlarimiz uchun an`anaviy axloq normalarini qo`llab quvvatlaydi g`oyasi va Osiyo,Yaqin Sharq,Lotin Amerikasida ham xuddi shunday pozitsiyani qo`llab quvvatlaydigan davlatlar bor va ular ko`pchilikni tashkil qiladi degan tezislardan,ko`p qutblilik jahon tizimining muhim jihatlari hisoblanadi va bu konferensiyada katta ahamiyatga ega bo`ldi.

Xulosa qiladigan bo`lsak,davlatlar yangi global kun tartibini birlashtirishni,adolatli va teng huquqli davlatlararo munosabatlarni mustahkamlashni,jahon integratsiyasini,o`zaro manfaatli iqtisodiy hamkorlik mexanizmlarni takomillashtirishni xohlayotganliklarini va dunyo asta-sekin bir qutblilikdan ko`p qutblilikka o`tayotganini yuqoridagi malumotlar asosida bilishimiz mumkin.Yani jahondagi ayrim davlatlar AQSH ning siyosiy insitutlariga muqobil yo`llar topishga harakat qilshmoqda.Yani BRIKS davlatlari jahon integratsiyasini qayta yaratish yoki dollarga muqobil pul variantini yaratishga harakat qilayotganliklari,Yaqin Sharq mamlakatlarining munosabatlari xalqaro maydonda 2023-yilda tubdan o`zgarib ketganligi,yoki BMT dan keying o`rinda turadigan SHHT tashkilotining jadallashuvi va bu tashkilotga ham boshqa davlatlarning kirishga ariza topshirayotganliklari,jahon sekin-sekin umumiyligi integratsiyaga kirishayotganligini bilishmiz mumkin.Qo`sishimcha qiladigan bo`lsak,ko`p qutbli dunyo qutblari hech qachon kuch va hajm jihatidan teng bo`la olmaydi,biroq ularning har biri rivojlanishga ko`maklashish,global muammolarni hal qilish,hamma davlatlar amal qiladigan xalqaro huquq normarini yaratish va qolgan xalqaro hamjamiyat xavfsizligini taminlash uchun ko`proq narsani taklif qila oladi.

ADABIYOTLAR RO`YHATI:

- 1.Zbignev Bjezinskiy "Buyuk shaxmat taxtasi"
- 2.Genri Alfred Kissinger "Diplomatiya"
3. <http://kremlin.ru/events/president/news/70745>

4. <https://moderndiplomacy.eu/2022/10/17/a-multipolar-world-a-transformation-in-the-global-system/>
5. <https://www.globaltimes.cn/page/202301/1284028.shtml>